



Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020 – yil yanvar – mart

2020 – yilning yanvar – martida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi **56,1 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **11,8** birlikni tashkil qildi.

2020 – yilning yanvar – martida **1829** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,1** foizga ko'p.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 791 ta, sanoatda 457 ta, yashash va ovqatlanishda 136 ta, qurilishda 129 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 73 ta, tashish va saqlashda 65 ta tashkil etilgan.

**2020 – yil yanvar – mart oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ulushi, % da**



Savdo
43,2 %



Sanoat
25,0 %



**Yashash va
ovqatlanish**
7,4 %



Qurilish
7,1 %



**Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi**
4,0 %



Tashish va saqlash
3,6 %

2020 – yilning yanvar – martida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019 – y.	2020 – y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	24407	27026	2619
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	1741	1829	88
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	56,5	56,1	-0,4
Sanoat	%	17,2	19,5	2,3
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	98,8	98,6	-0,2
Investitsiya	%	65,1	80,4	15,3
Qurilish	%	95,3	96,0	0,7
Savdo	%	87,6	89,7	2,1
Xizmatlar	%	70,3	65,8	-4,5
Yuk tashish	%	93,5	93,8	0,3
Yuk aylanmasi	%	63,1	63,5	0,4
Yo'lovchi tashish	%	95,5	95,7	0,2
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,7	96,0	0,3
Eksport	%	71,9	50,9	-21,0
Import	%	11,5	13,0	1,5



2020 – yilning yanvar – martida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020 – yilning yanvar – martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha eng ko'pi Andijon shahrida – 485 ta, Asaka tumanida – 201 ta, Shahrixon tumanida – 118 ta, Baliqchi tumanida – 115 ta, Jalaquduq tumanida – 114 ta va Qo'rg'on tepa tumanida – 100 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Ulug'nor tumanida – 24 tani tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019 – yil yanvar – mart	2020 – yil yanvar – mart	(+;-)
Andijon viloyati	1741	1829	88
Andijon sh.	522	485	-37
Xonobod sh.	29	44	15
tumanlar:			
Oltinko'l	80	98	18
Andijon	114	89	-25
Baliqchi	82	115	33
Bo'ston	33	60	27
Buloqbo'shi	43	81	38
Jalaquduq	77	114	37
Izboskan	92	75	-17
Ulug'nor	26	24	-2
Qo'rg'ontepa	99	100	1
Asaka	149	201	52
Marhamat	78	74	-4
Shahrixon	167	118	-49
Paxtaobod	86	68	-18
Xo'jaobod	64	83	19



2020 – yil yanvar – mart holatiga ko'ra yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da



2020 yil yanvar - mart holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Andijon shahri – 26,5 %, Asaka tumani – 11,0 %, Shahrixon tumani – 6,5 %, Baliqchi tumani – 6,3 %, Jalaquduq tumani – 6,2 %, Qo'rg'on tepa tumani – 5,5 % ni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich esa Ulug'nor tumanida – 1,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar- mart	2020 - yil yanvar- mart	(+;-)
Jami	1741	1829	88
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	58	73	15
Sanoat	416	457	41
Qurilish	189	129	-60
Savdo	803	791	-12
Tashish va saqlash	59	65	6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	90	136	46
Axborot va aloqa	22	35	13
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	27	35	8
Boshqa faoliyat turlari	77	108	31

Ma'lumot uchun: 2020 - yil yanvar – martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

savdoda – 791 ta;

sanoatda – 457 ta;

yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda –136 ta;

qurilishda – 129 ta;

qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 73 ta;


Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2019 - yil yanvar-mart	2020 - yil yanvar-mart	Farqi (+;-)
Andijon sh.	522	485	-37
Asaka tumani	149	201	52
Shahrixon tumani	167	118	-49
Baliqchi tumani	82	115	33
Jalaquduq tumani	77	114	37
Qo'rg'ontepa tumani	99	100	1
Oltinko'l tumani	80	98	18
Andijon tumani	114	89	-25

2020 – yilning yanvar – martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida – 485 taga yetdi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda





Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga, birlikda, yanvar - mart holatiga ko'ra*




2020 – yilning yanvar–martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga, birlikda hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Andijon shahrida 22,3 birlik, Ulug`nor tumanida 19,4 birlik, Xo`jaobod tumanida 14,8 birlik. Bo`ston tumanida 13,1 birlik, Xonobod shahrida 12,9 birlik, Asaka tumanida 11,9 birlik, Baliqchi tumanida 11,3 birlikni tashkil etgan. Izboskan tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 7,3 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2020 – yilning yanvar – martida shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga, birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga, birlikda

- **Eng yuqori ko'rsatkich** - Andijon shahri - 22,3 birlik;
- **O'rtacha ko'rsatkich** - Marhamat tumani - 10,7 birlik;
- **Eng past ko'rsatkich** - Izboskan tumani - 7,3 birlik;

Bundan ko'rinib turibdiki, Andijon shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu shaharda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Izboskan tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.


Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar - mart holatiga ko'ra, % da

2020 – yilning yanvar – martida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 56,1 % ni tashkil qildi. (2019 yilning yanvar - martida 56,5 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)





2020 – yilning yanvar – martida kichik tadbirkorlikni hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Andijon viloyati	19,5	96,0	65,8	80,4
Andijon sh.	20,5	93,5	35,7	69,7
Xonobod sh.	10,1	100,0	93,2	79,4
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko`l	57,8	100,0	96,0	74,5
Andijon	63,5	95,1	93,2	79,8
Baliqchi	100,0	100,0	97,8	90,3
Bo`ston	100,0	100,0	92,6	95,7
Buloqboshi	100,0	100,0	95,0	80,1
Jalaquduq	87,6	84,6	97,7	86,2
Izboskan	86,0	100,0	96,6	86,5
Ulug`nor	100,0	90,1	96,7	97,2
Qo`rgontepa	64,0	98,7	96,3	96,5
Asaka	1,8	100,0	94,7	41,6
Marhamat	96,2	100,0	98,4	66,2
Shahrixon	82,9	100,0	97,5	89,2
Paxtaobod	66,6	100,0	97,2	92,0
Xo`jaobod	94,2	100,0	97,1	97,6

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda -

Buloqboshi (100,0 %)
Baliqchi (100,0 %),
Bo`ston (100,0 %),
Ulug`nor (100,0 %),
Marhamat (96,2 %)
va Xo`jaobod (94,2 %) tumanlarida

Qurilishda-


Xonobod sh. (100,0 %),
Oltinko`l (100,0%),
Baliqchi (100,0 %),
Bo`ston (100,0 %),
Buloqboshi (100,0 %)
va Izboskan (100,0 %) tumanlarida.

Xizmatlarda-

Marhamat (98,4 %),
Baliqchi (97,8 %),
Jalaquduq (97,7 %),
Shahrixon (97,5 %),
Paxtaobod (97,2 %)
va Xo`jaobod (97,1 %) tumanlarida.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020 yilning yanvar - martida






Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksportinig jami eksportdagi ulushi, % da



2020 – yil yanvar – mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulot, (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Xo'jaobod tumanida – 88,6 %, Asaka tumanida – 57,4 %, Andijon tumanida – 46,5 %, Andijon shahrida – 38,4 %, Qo'rg'ontepa tumanida – 35,7 % ni, eng past ko'rsatkich Xonobod shahrida – 4,1 % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020 – yil yanvar – mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Paxtaobod, Marhamat, Jalaquduq, Buloqboshi, Bo'ston, Xo'jaobod, Ulug'nor, Baliqchi, Izboskan tumanlarida - 100,0 %, Qo'rgontepa tumanida - 99,2 %, Shahrixon tumanida - 96,6 %, Andijon tumanida – 92,3 % ni, eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida – 0,5 % ni tashkil etdi.



2020 – yilning yanvar – martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (280,1 mlrd. so'm), Shahrixon (163,6 mlrd. so'm), Baliqchi (118,6 mlrd. so'm), Andijon (111,1 mlrd. so'm) va Izboskan (109,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Xonobod shahrida (28,8 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






2020 – yil yanvar – mart holatiga ko'ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Buloqboshi, Baliqchi, Bo'ston, Ulug'nor tumanlari (100,0 %), Marhamat tumani (96,2 %), Xo'jaobod tumani (94,2 %), Jalaquduq tumani (87,6 %) tumanlari tashkil etdi. Asaka tumanida (1,8 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020 – yilning yanvar – martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (849,9 mlrd.so'm), Asaka (312,4 mlrd.so'm), Shahrixon (311,6 mlrd.so'm), Qo'rg'ontepa (222,4 mlrd.so'm), Baliqchi (151,1 mlrd.so'm), Andijon (136,1 mlrd.so'm) hamda Izboskan (134,7 mlrd.so'm) taskil etdi. Eng past ko'rsatkich esa Bo'ston tumani (25,0 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi.



2020 – yilning yanvar – martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (321,1 mlrd.so'm), Andijon (87,9 mlrd.so'm), Shahrixon (53,1 mlrd.so'm), Oltinko'l (33,1 mlrd.so'm), Marhamat (32,1 mlrd.so'm), Bo'ston (31,5 mlrd.so'm), Asaka (28,8 mlrd.so'm) tumanlarida, eng kam hajm esa Buloqboshi (9,8 mlrd.so'm) tumanida qayd etildi.





2020 – yilning yanvar – martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Andijon shahri (468,1 mlrd. so'm), Asaka (146,8 mlrd. so'm), Shahrixon (144,8 mlrd.so'm), Andijon (120,5 mlrd.so'm), Izboskan (109,1 mlrd.so'm) va Baliqchi (106,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Eng kam hajm esa Ulug'nor (18,0 mlrd.so'm) tumanida qayd etildi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020 – yil I chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **995** ta respondentlar ishtirok etdi.


2020 – yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 4,8 % (48 ta.), sanoatda – 23,5 % (234 ta), qurilishda – 10,2 % (102 ta) , savdoda – 30,4 % (302 ta), xizmatlar sohasida – 31,1 % (309 ta).

* yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.

2020 – yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirm va kichik korxonalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020 – yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirm va kichik korxonalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020 – yilning I choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

Joriy yilning I choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda savdo sohasida 0,5 punktga, sanoat sohasida 6,7 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 – 2020 – yillarda I chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020 – yilning I choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 5,3 punktga, sanoat korxonalari 14,5 punktga, qurilish korxonalari 11,6 punktga, savdo sohasi 1,2 punktga, xizmatlar sohasi 3,5 punktga yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi sanoat sohasida 0,5 punktga oshdi. Aksincha xizmatlar sohasida 0,8 punktga, savdoda 0,2 punktga, qurilish korxonalarida 1,0 punktga kamayishi kuzatildi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019 – 2020 – yillarda I chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi,% da






2020 – yilning I choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **221** ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 56 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 25,3 % i), qurilish – 13 ta (5,9 % i), savdo – 95 ta (43,0 % i) va xizmatlar – 49 ta (22,2 % i), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 8 ta (3,6%).

2020 – yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi






2020 – yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020 – yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2020 – yilning I choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi savdo sohasida 1,0 punktga kamaydi, qolgan barcha faoliyat turlari bo'yicha o'sish kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning I choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 16,1 punktga, sanoat korxonalari 2,1 punktga o'sdi. Aksincha qurilish korxonalari 9,4 punktga, savdo sohasi 2,0 punktga va xizmatlar sohasi 32,7 punktga kamayishi kuzatildi.

Joriy yilning I choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 4,6 punktga, savdo sohasida 3,0 punktga, qurilish korxonalari 7,7 punktga o'sdi. Aksinch qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 16,1 punktga, sanoat korxonalar 12,5 punktga pasayishi kuzatildi.



2019 – 2020 – yillar I chorakdagi yangi tashkil etilgan mikrofirma kichik korxonalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning faoliyatini kuzatuv natijalariga ko'ra, 2020 – yilning I choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishi kutilayotgan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb baxolagan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini kuzatilayotgan korxonalar ulushi savdo sohasida 0,5 punktga o'sishi kuzatildi.



2019 – 2020 – yil I choragida yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash,% da



**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi
Ishbilarmonlik muhiti
kuzatuvlari, tadbirkorlikni
rivojlantirish statistikasi bo`limi**

Tel.: (0374) 224-82-49